

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA TEZKOR QIDIRUV BO'LINMALARI

ТОМОНИДАН XONADONLARDA SODIR ETILADIGAN O'G'RILIK

JINOYATLARI

Xaydarqulov Lazizbek Shavkat o'g'li
IIV Akademiyasi kursanti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ichki ishlar organlarining tezkor qidiruv bo'linmalari tomonidan fuqarolarning xonadonlarida sodir etiladigan o'g'rilik jinoyatlarini aniqlash va ularning oldini olish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Xonodon o'g'riliklarining o'ziga xos xususiyatlari, ularni sodir etish uslublari, jinoyatchilarning harakatlari va ularning izini yashirishga bo'lgan urinishlari yoritib beriladi. Shuningdek, tezkor-qidiruv tadbirlarining samaradorligini oshirish, jinoyatlarni fosh etish va jinoyatchilarni qo'lga olishdagi zamonaviy texnologiyalar va tajribalarning ahamiyati oolib berilgan. Maqolada ushbu sohadagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ham bayon etilgan.

ANNOTATION

This article analyzes the measures taken by the operational search units of internal affairs bodies to detect and prevent burglary crimes committed in citizens' homes. It highlights the specific characteristics of residential burglaries, the methods used by perpetrators, their tactics, and attempts to cover their tracks. The article emphasizes the importance of modern technologies and advanced practices in increasing the effectiveness of operational activities, solving crimes, and apprehending offenders. It also discusses existing challenges in this field and proposes solutions for their elimination.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются меры, предпринимаемые оперативно-розыскными подразделениями органов внутренних дел по выявлению и предупреждению краж, совершаемых в жилищах граждан. Раскрываются

особенности квартирных краж, способы их совершения, действия преступников и попытки сокрытия следов преступления. Особое внимание уделяется значению современных технологий и передовых методов в повышении эффективности оперативно-розыскной деятельности, раскрытии преступлений и задержании правонарушителей. Также рассматриваются существующие проблемы в данной сфере и предлагаются пути их решения.

Kalit so‘zlar: Xonadon o‘g‘riliği, o‘g‘rılık jinoyati, jinoyatni fosh etish, jinoyatchilikka qarshi kurash, tezkor-qidiruv tadbirlari, tezkor xizmat, jinoyat izlarini aniqlash, ichki ishlar organlari, tergov jarayoni, kriminogen vaziyat, xavfsizlik choralar, jinoyatchilarni qo‘lga olish, jinoyatning oldini olish, fuqarolarning mulkiy xavfsizligi, jinoyatni sodir etish usullari, huquqbazarlik, jinoyat izlarini yashirish, operativ ma’lumot, zamonaviy texnologiyalar, monitoring va tahlil, jinoyatchilik statistikasi, huquqni muhofaza qilish organlari, kriminologik tahlil, uy-joy xavfsizligi, profilaktik tadbirlar, jinoyatga qarshi kurashish tizimi.

Keywords: Residential burglary, burglary crime, crime detection, crime prevention, fight against crime, operational search measures, rapid response units, criminal investigation, internal affairs bodies, law enforcement agencies, crime scene analysis, criminal behavior, security measures, apprehension of offenders, protection of private property, criminal tactics, concealment of evidence, operational intelligence, modern technologies, monitoring and analysis, crime statistics, criminal justice system, criminological analysis, household security, preventive actions, law enforcement operations, surveillance techniques, investigation process, criminal environment, public safety.

Ключевые слова: Квартирная кража, преступление кражи, раскрытие преступлений, предупреждение преступлений, борьба с преступностью, оперативно-розыскные мероприятия, оперативные подразделения, уголовное расследование, органы внутренних дел, правоохранительные органы, анализ места преступления, поведение преступников, меры безопасности, задержание преступников, защита личной собственности, тактика преступников, сокрытие

улик, оперативная информация, современные технологии, мониторинг и анализ, статистика преступности, система уголовного правосудия, криминологический анализ, безопасность жилища, профилактические меры, действия правоохранительных органов, методы наблюдения, процесс расследования, криминогенная обстановка, общественная безопасность.

Ichki ishlar organlari faoliyatida xonadonlarda sodir etiladigan o‘g‘rilik jinoyatlarini aniqlash va oldini olish muhim o‘rin tutadi. Bunday jinoyatlar fuqarolarning mulkiga bevosita zarar yetkazadi va ularning xavfsizlik borasidagi ishonchini susaytiradi. Ayniqsa, o‘g‘riliklar ko‘pincha yashirin ravishda, ilgari rejalashtirilgan holda amalga oshiriladi. Jinoyatchilar o‘g‘rilik sodir etishdan oldin xonadonni kuzatishadi, uy egalari yo‘qligiga ishonch hosil qilishadi, qo‘snilar, xavfsizlik kameralarining mavjudligi, eshik va derazalarning mustahkamligi kabi omillarni hisobga olishadi. Odatda, ular tez harakat qiladi, iz qoldirmaslikka harakat qiladi va tezda voqeа joyini tark etadi. Bu esa ichki ishlar organlari, xususan, tezkor qidiruv bo‘linmalari oldiga murakkab vazifalarni qo‘yadi. Tezkor-qidiruv xodimlari o‘g‘rilik yuz berganidan so‘ng voqeа joyini ko‘zdan kechiradi, izlarni, dalillarni yig‘adi, qo‘snilar va guvohlar bilan suhbat o‘tkazadi, mavjud ma’lumotlarni solishtiradi, ilgari sudlangan yoki gumon ostidagi shaxslar ustida tekshiruvlar o‘tkazadi. Ularga zamonaviy texnologiyalar, ya’ni videokuzatuv yozuvlari, sun’iy intellekt yordamida shaxsni aniqlash tizimlari, ma’lumotlar bazasidan foydalanish orqali jinoyatchini tezroq aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘g‘rilik jinoyatlarini fosh etishdan ko‘ra ularning oldini olish maqsadga muvofiq. Ichki ishlar organlari bunday jinoyatlarning oldini olish uchun xavfli hududlarda profilaktik choralar ko‘radi, maxsus reydlar o‘tkaziladi, jinoyatga moyil shaxslar ustidan doimiy nazorat o‘rnataladi. Shuningdek, fuqarolarning o‘zini xabardor qilish, ya’ni ularni o‘z mulkini himoya qilishga undash, masalan, kameralar o‘rnatish, ishonchli qulflar ishlatalish, qo‘snilar bilan axborot almashish, profilaktik suhbatlar o‘tkazish orqali jinoyatga imkon bermaydigan muhit yaratiladi. Xulosa qilib aytganda, xonadon

o‘g‘riliklarini aniqlash va oldini olish ichki ishlar organlari faoliyatining muhim yo‘nalishi bo‘lib, bunda tezkor qidiruv bo‘linmalari asosiy rolni o‘ynaydi. Bu sohada samaradorlikni ta’minlash uchun xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlanganligi va aholining huquqiy madaniyatining yuqoriligi muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha ishtirokchilarning hamkorligi orqaligina jamiyatda xavfsizlik va osoyishtalik ta’minlanadi.

Jinoyatchilar turli texnologiyalardan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish orqali uy egalarining manzilini, ularning qayerda va qachon bo‘lishini oldindan aniqlashga urinadilar. Aynan shu sababli ichki ishlar organlari tomonidan doimiy tahliliy ishlar olib borilishi, jinoyatchilikka oid ma’lumotlarning zamonaviy dasturlar orqali qayta ishlanishi, xavfli zonalarni aniqlab, profilaktika ishlari kuchaytirilishi zarur. Bundan tashqari, har bir mahalla va hududda profilaktika inspektorlarining faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. Ular o‘z xizmat hududidagi muammolarni yaxshi biladi, potentsial xavfli shaxslarni aniqlash va ular bilan doimiy aloqa o‘matish orqali xonodon o‘g‘riliklarining oldini olishga hissa qo‘sadi. Hozirgi vaqtida tezkor-qidiruv bo‘linmalarida xizmat qilayotgan xodimlar nafaqat jismoniy va yuridik bilimlarga ega bo‘lishi, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi o‘zlashtirgan, analitik fikrlovchi, jamoaviy muvofiqlashtirishga qodir bo‘lishi lozim. Chunki bugungi jinoyat olami yildan-yilga murakkablashib bormoqda, jinoyatchilar ham o‘z usullarini yangilamoqda. Ana shunday sharoitda tezkor xodim faqat o‘z tajribasi bilan emas, balki ilmiy asoslangan usullardan, statistika va kriminologik tahlillardan foydalangan holda ishlashi talab etiladi. Jinoyatlarni oldindan bashorat qilish, jinoyatchining psixologik portretini tuzish, ehtimoliy jinoyat manzillarini aniqlash – bularning barchasi zamonaviy tezkor-qidiruv faoliyatining ajralmas qismlaridir. Aholining faolligi, huquqbuzarlik holatlarini vaqtida xabar berishlari, shubhali harakatlarga befarq bo‘lmasliklari ham jinoyatchilikka qarshi kurashda samarali omildir. Fuqarolarning huquqiy savodxonligi oshsa, o‘z mulkini himoyalash madaniyati rivojlansa, bu jinoyatlar sonining kamayishiga olib keladi. Shu sababli ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, mакtab va oliy o‘quv yurtlarida huquqiy

targ‘ibot ishlarini olib borish dolzarb hisoblanadi. Ichki ishlar organlari va aholining hamkorligi asosida mustahkam xavfsizlik tizimi vujudga keladi. Bu esa nafaqat o‘g‘riliklar, balki boshqa ko‘plab jinoyat turlarining ham oldini olishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni, Jinoyat kodeksi, Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risidagi normativ hujjatlar ana shu jarayonning qonuniy asoslarini tashkil etadi va har bir xodim bu qonunlar asosida faoliyat yuritishi shart. Tezkor qidiruv xizmati bu – faqat jinoyatchini ushlash emas, balki xavfsizlikni ta’minlash yo‘lida olib borilayotgan doimiy harakat, kecha-kunduz davom etadigan mashaqqatli, lekin sharafli xizmatdir.

Xonadonlarda sodir etiladigan o‘g‘rilik jinoyatlari ko‘p hollarda uy egalarining befarqligi yoki ehtiyyotsizligi natijasida sodir etilishi mumkin. Ba’zi fuqarolar o‘zlarining uzoq muddatga safarga ketganliklari haqida ijtimoiy tarmoqlarda ochiq ma’lumot beradilar yoki qo‘snilarga aytmasdan uyni ochiq holda qoldiradilar. Bu esa jinoyatchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ichki ishlar organlari aholiga doimiy tarzda tushuntirish ishlari olib borishlari, xonodon xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik maslahatlar berishlari, ayniqsa, bayram kunlari, yozgi ta’tillar yoki ommaviy tadbirlar vaqtida fuqarolarning uylarini himoya qilishlari bo‘yicha eslatmalarni kuchaytirishlari kerak. Bu borada mahalla faollari, jamoatchilik nazorati guruhlari, nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda seminar, uchrashuv va huquqiy targ‘ibot ishlari olib borilishi zarur. Bundan tashqari, jinoyatchilikka qarshi kurashda tezkor qidiruv xizmatlarining texnik bazasini mustahkamlash dolzarb vazifadir. Har bir tuman va shahar ichki ishlar bo‘limida zamонави kompyuterlar, tezkor axborot almashinuv tizimlari, mobil aloqa vositalari, tezkor harakatlanuvchi guruhlar uchun maxsus transport vositalari bo‘lishi zarur. Bu nafaqat jinoyatga tezkor munosabat bildirish imkonini beradi, balki jinoyatni fosh etish tezligini oshiradi. Bundan tashqari, hududlardagi videokuzatuv kameralarining yagona markazlashtirilgan tizimga ulanib ishlashi ham tezkor xizmatlarning imkoniyatini kengaytiradi. Har bir xodim videoanalitika, biometrik tizimlar, sun’iy intellekt bilan ishlovchi dasturlar bilan tanish bo‘lishi, ularni amaliyotda qo’llay olishi kerak. Chunki

bugungi kunda jinoyatchilar ham yuqori darajadagi texnik vositalardan foydalanmoqda, ularning harakati an'anaviy usullar bilan aniqlanishi qiyinlashmoqda. Shu bois, zamonaviy yondashuv, ilmga asoslangan usullar, ijtimoiy tahlillar va axborot texnologiyalariga tayanilgan tezkor faoliyat eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘g‘rilik jinoyatlarini tahlil qilish va ularning sodir bo‘lish sabablari, ijtimoiy omillari ham doimiy o‘rganib borilishi lozim. Aholining turmush darjasasi, ishsizlik, yoshlar orasida nazoratsizlik, oilaviy muammolar ham ayrim hollarda jinoyatchilikka olib keluvchi omillardir. Ichki ishlar organlari esa bu jarayonlarga befarq bo‘lmay, muammolarni erta bosqichda aniqlashi, jinoyat sodir bo‘lishidan oldin profilaktik choralarni ko‘rishi kerak. Har bir jinoyat fosh etilishi kerak, lekin har bir jinoyatning oldi olinishi bundan-da muhimroqdir. Bu esa faqatgina professional xodimlar, ilg‘or texnologiyalar va ijtimoiy hamkorlik orqali amalga oshadi. Ichki ishlar organlari faqat jinoyatchini qo‘lga olish emas, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkini, osoyoishtaligini himoya qiluvchi tayanch kuchdir. Shu sababli tezkor-qidiruv xizmatining har bir xodimi o‘z kasbiga fidokorlik bilan yondashib, Vatanga va xalqiga sodiqlik bilan xizmat qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Bekmurodov Sh.Sh. Operativ-rozisk faoliyati: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Mulkhaqimlik vazirligi, 2021.*
2. *Karimov I.X. Mulkka qarshi jinoyatlarning oldini olish va ularni fosh etish: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Yuridik adabiyot”, 2020.*
3. *Abdullahov U.M. Kriminologiya: nazariya, amaliyot va zamonaviy chaqiriqlar. – Toshkent: Fan, 2019.*
4. *O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.*
5. *O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: Lex.uz rasmiy portalı, 2023.*
6. *Egamberdiyev M.T. Tezkor-qidiruv faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari. – Toshkent: IIV nashriyoti, 2022.*

7. Xudoyberganov B.S. Jinoyatchilikka qarshi kurashda tezkor-qidiruv choralari. – Toshkent: Huquq, 2021.
8. Toshqulov A.M. Jinoyat-protsessual huquq: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
9. Raxmonqulov D.E. Jinoyatchilik va unga qarshi kurashning zamonaviy usullari. – Toshkent: IIV Akademiyasi, 2020.
10. Tashmuxamedov M.M. Kriminologiya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2019.
11. Maxmudov A.Z. Ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslari. – Toshkent: Huquqiy bilim, 2022.
12. Bobojonov O.A. Jinoyatlarni fosh etishda kriminalistik metodlar va vositalar. – Toshkent: Adolat, 2021.
13. Yo'ldoshev N.T. O'zbekiston Respublikasida huquqbazarliklarning oldini olish tizimi. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2020.
14. Shirinov S.A. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning zamonaviy faoliyati. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2023.
15. Sharqova E.V. Operativ-rozisk faoliyati psixologiyasi. – Moskva: Yurayt, 2018.
16. Davlatov M.R. Tezkor-qidiruv faoliyatining psixologik jihatlari. – Toshkent: Ichki ishlar nashriyoti, 2022.

Internet manbalari:

- www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi
- www.mvd.uz – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi rasmiy sayti
- www.kriminologiya.uz – Kriminologik tahlillar portalı
- www.zakon.uz – Yuridik axborotlar portalı
- www.norma.uz – Normativ-huquqiy hujjatlar yangiliklari